

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ILMIY VA ADABIY MEROsi

Alisherova Asilabonu Absalomovna

Tisu talabasi.

Norkulova Shahnoza To‘lqinovna

Ilmiy rahbar. Tisu dotsenti. (PHD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648237>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili sanalgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li, boshqa davlatlarga qilgan yurishi, Boburning avlodi, uning asl ismi ijodi va tarjimashunosliga beqiyos urg‘u beriladi.

*Kalit so‘zlar:* Zahiriddin Muhammad Bobur, “Topmadim”, “Boburnoma”, “Kobul” devoni va “Hind” devoni, “Mubayyin”.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevral Andijonda Farg‘ona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo hamda Chingiziylar avlodidan bo‘lgan Qutlug‘ Nigorxonim oilasida dunyoga keladi. Bobur 1503-1504-yillarda Afg‘onistonni egallaydi. 1519-1525-yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. III asrdan ortiq davom etgan Boburiylar sultanatiga asos solgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Sohibqiron Amir Temur avlodidan bo‘lgan. Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzoning nevarasi bo‘lgan.

Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘ul xonlaridan biri Yunusxonning qizi bo‘lgan. Endi uning asl ismi to‘grisida so‘z yuritadigan bo‘lsak Zahiriddin Muhammad uning asl ismi, Bobur esa taxallusi deb o‘ylaymiz, aslida esa Mirzo Olim Mushrifning “Sultonlar nasablari” va “Xoqonlar tarixi” asarida va Boburning o‘z ruboiysida keltirilishicha uchalasi ham uning asl ismi ekan. Boburning quyidagi ruboiysida shoh va shoirning asl ismi quyidagicha keltiriladi:

Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobir,  
Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobir,  
Sarishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor,  
Uz oh Zahiriddin Muhammad Bobir.

Lekin Mirzo Olim Mushrif “Sultonlar nasablari” va “Xoqonlar tarixi” da aynan ismning ma’nosini tushuntirish maqsadida bu ko‘rinishda taqdim etadi.

Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Sarishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor,  
Uz oh zahiriddin Muhammad Bobur.

Mirzo Olim Mushrifning ushbu asarida Umarshayx Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘liga Xo‘ja Ubaydulloh Ahrorning ism qo‘yanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Boburning quyidagi ruboiysini

Tuz oh Zahiri dini Muhammad Bobur,  
Yuz oh Zahiri dini Muhammad Bobur,  
Sarishtayi ayshdin ko‘ngulni zinxor,  
Uz oh Zahiri dini Muhammad Bobur

ruboiysini “Sultonlar nasablari” va “Xoqonlar tarixi” asarida shu holatda keltiriladi.

Sababi ism so‘zlarining sharhini tushuntirmoqchi bo‘ladi.

Zahiri dini Muhammad ya’ni Muhammad dinining tayanchi, posboni demakdir. Bunda aynan biz uning asl ismi ma’nosini bilishimiz uchun shu holatda yozib qoldiryapdi. Bobur esa babr she’r – she’rdek degan ma’noni anglatadi. U juda ham mardligi, jasurligi uchun aynan shu taxallusni olgan. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lgan. Unga hokimiyatni boshqarish ishlarida va harbiy yurishlarda ko‘maklashgan. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. U otasining izidan boradi. Xo‘ja ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqatida voyaga yetadi.

Keyinchalik “Boburnoma” da Xo‘ja Ahror haqida shunday ma’lumotlar keltiriladi: Uning ruhi ko‘p choraszlikda unga rahnomalik qilgani, bir necha falokatlardan uni asrab qolgani va uni og‘ir damlarda doim ruhlantirgani haqida ta’kidlaydi. Boburning otasi bevaqt 39 yoshida vafot etadi. Uning 12 yoshli o‘g‘li Bobur taxtga o‘tiradi. Bobur 18-19- yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning “Topmadim” radifli g‘azali:

Yod etmas kishini g‘urbatda kishi ruboiysi aynan ana shu vaqlarda yozilgan. Bobur she’rlarining umumiyligi hajmi 400 dan ortiq. Shulardan 119 tasi g‘azal, 231 tasi ruboiy hisoblanadi.

Boburning tuyuq, qit’a, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari bor. Devoni tarkibida umumiyligi hajmi 270 baytdan iborat, 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Bobur o‘z she’larini to‘plab devon holiga keltirilgan sanani ko‘rsatuvchi tarixiy ma’lumotlar mavjud emas. Ammo “Boburnoma” dagi 1518-1519-yillarda bayon etuvchi ma’lumotlarda Kobul devoni Samarqandga jo‘natganligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tadi va shu yillarda devonga tartib berilgan. Ushbu devon movarounnahrda ham tarqalgan. Boburning barcha nazmiy asarlari avval “Kobul” devoni so‘ng “Hind” devoniga jamlangan. U 1521-yil Hindistonga yurish davrida “Mubayyin” asarini yaratgan. Ushbu asar masnaviy shaklida yozilgan. Valiahd Humoyun va Kamron Mirzolarga dastur-ul amal sifatida mo‘ljallab yozilgan. “Mubayyin” asarida ayni zamondagi namoz, zakot, haj-safari to‘g‘risidagi shariy mezonlar aytib o‘tilgan. Lirikasining o‘zig xosligi shundaki Bobur she’riyatini hammaga tushunarli, sodda, samimiy va ravon tilda yozishga harakat qilgan. G‘azal va ruboilarda balandparvoz so‘zlar va mukammal iboralarni qo‘llamagan. Bu haqida o‘zining “Boburnoma” asarida ham to‘xtalib o‘tgan:

“Ravshan va toza shaplar yordamida soddaroq yoz:  
va senga ham, seni xatingni o‘qug‘anga ham oson bo‘ladi”.

Bobur nafaqat shoh va shoir hattoki tarjimashunoslik bilan ham shug‘ullangan. Xoji Ahror Valining “Voldiya” ya’ni “Ota-onalar risolasi” ni she’riy shaklda tarjima qilgan. Bobur o‘z yozuvini kashf etadi. Arab grafikasidan foydalanib Xatti Boburiyni tuzadi. Ushbu grafika asosida Qur’oni Karim hamda Boburning asarlari qayta ko‘chirilgan. Xatti Boburiyni tuzishdan maqsad Boburiy arab alifbosidagi qiyinchilikni yengib o‘tib u harflarni soddalashtirgan va turkiy talaffuz me’yorlariga moslashtirgan. Bobur haqida qiziqarli ma’lumotlarni e’tirof etadigan bo‘lsak Hind olimlarining e’tirof etishicha Bobur Hindistonda pochta tizimini yo‘lga qo‘ygan.

Bobur yo‘lida uchragan har qanday daryoni suzib o‘tar edi, hattoki Ganga daryosini ikki marta suzib o‘tgan ekan. Sulola asosan forsiy va turkiy tilni davlat tiliga ko‘targan. Keyinchalik fors, turk va arab tillari qorishmasdan urdu tili paydo bo‘lgan.

O‘zbekistonda adabiy shaxlar ichida birinchi bo‘lib Bobur ensiklopediyasi yaratildi.

Bobur haqida Yevropaliklarning fikri va e'tirofi:

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida G'arb dunyosida 28 ta roman yozilgan. Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH Sharqshunos tarixchi olimlari diqqat e'tiborini o'ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden avvalo Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi va shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Bobur fe'l atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan" deb e'tirof etadi. Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlik yillari haqida roman yozgan "Boburnoma" ning ingliz tarjmoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, sa'natga muhabbati va ular bilan muvaffaqqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi" deya e'tirofga sazovar bo'lgan buyuk siymo sanaladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur — nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki betakror shoir, ilm va san'at homiysi, o'z davrining ma'rifatparvar siymolaridan biridir. Uning shaxsiyati ko'p qirrali bo'lib, u siyosiy maydonda jasorat va donishmandlik bilan tanilgan, adabiy maydonda esa o'zining nafis, samimiy va sodda tilda yozilgan she'rlari, tarixiy va badiiy asarlari bilan o'zbek hamda jahon adabiyotining oltin sahifalaridan joy olgan.

Boburning asl ismi va taxallusi borasidagi ilmiy ma'lumotlar ham uning o'z davrida juda katta e'tibor qozongan shaxs bo'lganini ko'rsatadi. Bobur o'z asarlarida yuksak insoniy fazilatlarni ulug'lagan, xalqona va tushunarli uslubni afzal ko'rgan. Ayniqsa, uning "Boburnoma" asari o'zining tarixiy, adabiy va tilshunoslik nuqtai nazaridan beqiyos manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bobur o'zining harbiy yurishlari bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solgan bo'lsa, ilmiy-ma'rifiy faoliyati orqali xalqlar o'rtasida madaniy ko'priklar barpo etgan. U yaratgan Xatti Boburiy ham bu yo'ldagi muhim innovatsion qadamlardan biri bo'lgan.

G'arb olimlarining e'tirof etishicha, Bobur o'zining shaxsiy fazilatlari — saxiyligi, mardligi,adolatparvarligi bilan Sezardan ham afzal ko'rigan shoh sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Shuningdek, Bobur she'riyatining umumxalq tilida yozilishi uning ijodini keng ommaga yaqinlashtirgan va yillar o'tishi bilan yanada qadrlanishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda ham Bobur shaxsi va ijodi butun dunyoda chuqur o'rganilib, e'tirof etilmoqda. Uning merosi yosh avlodni ezgulikka, bilimga, mehnatsevarlikka va yurtparvarlikka undovchi bebaho boylikdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur- "Boburnoma" Toshkent-2024
2. Pirimqul Qodirov- Yulduzli tunlar –Toshkent-2024
3. Pirimqul Qodirov- Avlodlar dovon- "Oltin qalam" nashriyoti 2023